BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Jumaboyev Nabi Pardaboyevich
Guliston davlat pedagogika instituti,
“San’atshunoslik” kafedrasi v.b. dotsenti (PhD)

Annotatsiya: maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoni, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi roli tahlil qilinadi. Kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik vositalar, interaktiv va loyiha asosidagi o‘quv metodlari, shuningdek, talabalar ijodiy va kritik tafakkurini mustahkamlash strategiyalari ko‘rib chiqiladi. Maqola ilmiy va amaliy tadqiqotlar asosida pedagogik ta’lim sifatini oshirish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy ta’lim talablari darajasida tayyorlash imkoniyatlarini aniqlaydi.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, bo‘lajak o‘qituvchilar, kasbiy kompetentlik, pedagogik ta’lim, innovatsion texnologiyalar, ijodiy tafakkur, interaktiv metodlar.

Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik jarayonning samaradorligi turli omillarga bog‘liq bo‘lib, eng muhimlaridan biri bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishdir [1:12]. Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar, kreativ yondashuv va innovatsion texnologiyalarni qo‘llay bilish zarur [2:34]. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida talabalar faolligini ta’minlash, ularning ijodiy va estetik tafakkurini rivojlantirish muhim strategik vazifalardan biridir [3:27]. Tasviriy san’at ta’limi esa bolalarning estetik didi, badiiy fikrlash qobiliyati va ijodiy salohiyatini shakllantirishda markaziy rol o‘ynaydi [4:50]. Shu sababli, oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni nafaqat bilim va ko‘nikmalarni berish, balki ularni amaliyotga tatbiq etish, pedagogik mahorat va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Bugungi pedagogik nazariya va amaliyotda kasbiy kompetentlik tushunchasi strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘qituvchining kasbiy bilim va malakalari, shuningdek, ijodiy, motivatsion va amaliy salohiyatini ham qamrab oladi [1:62]. Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.

Hozirgi ta’lim jarayonida pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish, oldindan rejalashtirish va natijalarni bashorat qilish muhim omilga aylangan. Bu esa o‘qituvchidan nafaqat nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni, balki innovatsion yondashuvlarga asoslangan samarali pedagogik faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini talab qiladi [7:15]. Ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan davlat siyosati bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi [7:16]. Shu maqsadda bir qator normativ hujjatlar pedagogik texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etish zaruriyatini ta’kidlaydi [9:462]. Shu bilan birga, tasviriy san’atni o‘qitish orqali o‘sib kelayotgan avlodda badiiy tafakkur va estetik qarashlarni shakllantira oladigan yuqori malakali pedagoglarni tayyorlash strategik vazifa sifatida belgilangan.

Zamonaviy fan, texnika va texnologiyalar taraqqiyoti tasviriy san’at o‘qituvchilariga qo‘yiladigan talablarni keskin oshirdi. Shu bilan birga, ularning kasbiy shakllanishini ta’minlovchi pedagogik sharoitlar, metodlar va texnologiyalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, talabaning kasbiy shakllanish jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishini ta’minlash mexanizmlarining sustligi bugungi pedagogik muammolardan biridir [7:16]. Mazkur muammo asosan kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalarning yetarli darajada takomillashmaganligi bilan izohlanadi. Bu esa oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ilg‘or, zamonaviy yondashuvlar yetarlicha qo‘llanilmayotganini ko‘rsatadi [8:374]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tasviriy san’at yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarni zamonaviy me’yor va ehtiyojlarga javob bera oladigan, kasbiy kompetent o‘qituvchilar sifatida shakllantirish ta’lim tizimining strategik vazifalaridan biridir [10:88]. Bu, bir tomondan, umumiy o‘rta maktablar uchun sifatli kadrlar tayyorlashni ta’minlasa, ikkinchi tomondan pedagogik ta’lim mazmunini yangilash va uni istiqbolli yo‘nalishga yo‘naltirish imkonini beradi.

Zamonaviy ta’lim tizimida tasviriy san’atga bo‘lgan yondashuvni yangilash va uning o‘rni hamda ahamiyatini qayta baholash dolzarb masala hisoblanadi. Bolaning individual rivojlanish bosqichlarida tasviriy faoliyat yetakchi rol o‘ynashi ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lsa-da, amalda bu soha ko‘p hollarda yetarlicha qadrlanmayapti [9:462]. Shu bilan birga, tasviriy san’at ta’limi bolalarning estetik didi va badiiy tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi, u nafaqat ijodiy qobiliyatlarni shakllantiradi, balki bolalarning tafakkur tizimini kengaytirish, vizual tafakkur va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Bolalarning estetik va badiiy tafakkurini shakllantirishda tasviriy san’at ta’limining o‘rni beqiyos bo‘lsa-da, unga jamiyat tomonidan yetarli darajada e’tibor qaratilmayotgani kuzatiladi [7:18]. Bundan tashqari, bolalar qiziqishlarining o‘zgarishi nafaqat ularning shaxsiy ta’limiy ehtiyojlari bilan, balki ota-onalar, jamoatchilik vakillari va ta’lim sohasidagi mutasaddilarning munosabati bilan ham bog‘liqdir. Ta’lim muhitining sifati, o‘quv dasturlari mazmuni va pedagoglarning innovatsion yondashuvlardan foydalanishi bolalarning tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi yoki susaytiradi. Shu sababli, bolalarning badiiy faoliyatga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish va ularni

ijodiy tafakkurga yo‘naltirish maqsadida nafaqat dars jarayonida, balki oilaviy va ijtimoiy muhitda ham kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur.

Toshkent arxitektura-qurilish instituti “Muhandislik grafikasi” kafedrasi professori Asqarali Sulaymonov tasviriy san’atga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bu fan bolalarning estetik va ijodiy salohiyatini yuksaltirishda asosiy vosita bo‘lishi mumkin. Shu sababli pedagoglar nafaqat chuqur nazariy va metodik bilimlarga ega bo‘lishlari, balki o‘ziga xos individual uslubni shakllantira olishlari lozim [7:20]. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasini puxta egallagan, innovatsion yondashuvlarga tayangan va pedagogik faoliyatda ijodiylikni namoyon eta oladigan bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetent deb hisoblash mumkin.

Kasbiy kompetentlik nazariyasi XX asr o‘rtalarida shakllangan bo‘lib, dastlab tilshunoslik sohasida tadqiq qilingan. Noam Xomskiy “Sintaksis nazariyasi aspektlari” asarida “kompetensiya” atamasini tilni bilish va undan real foydalanish o‘rtasidagi farqni ifodalovchi kontsept sifatida ta’riflaydi [1:45]. Pedagogik fan olimlari, jumladan B.B.Gershunskiy, kompetentlikni shaxsning bilim va madaniy-ijtimoiy shakllanishi bilan bog‘liq kompleks sifatida talqin qiladi [1:62]. G.A.Asilova esa kompetensiya va kompetentlikni ajratib, ularni shunday izohlaydi: kompetensiya – ma’lum soha doirasidagi shaxsiy fazilatlar, bilim va malakalarni samarali qo‘llay olish; kompetentlik – muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati [2:40].

A.K.Markova va O.A.Qo‘ysinovlarning tadqiqotlariga ko‘ra, kasbiy kompetentlik mutaxassisning o‘z kasbiy faoliyatini egallaganlik darajasini aks ettiradi va shaxsning ichki motivatsiyasi, o‘zini rivojlantirish va tarbiyalashni qamrab oladi [3:27]. Strukturasi esa uch asosiy tarkibiy qismdan iborat: mazmuniy (bilim), motivatsion (qiziqish va ichki ehtiyoj), hamda amaliy ijro (faoliyatni bajarish qobiliyati) [4:50]. B.X.Xo‘jayev kompetensiyani shaxsning yangi tajribalarni o‘zlashtirish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlarini integratsiyalovchi mexanizm sifatida izohlaydi [4:67]. N.A.Muslimov kompetentlikni integrativ bilimlar va faoliyat usullarini samarali egallash sifatida talqin qiladi [3:45]. J.E.Usarov kompetensiyani ma’lum soha bo‘yicha tajriba va bilimlarni amaliyotga tadbiq etishga tayyorgarlik sifatida ta’riflaydi [5:120].

Amaliy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun diagnostik vositalar, interaktiv o‘quv-uslubiy majmualar va kasbiy kompetentlikni shakllantiruvchi metod va vositalar ishlab chiqilgan [8:374]. Shu bilan birga, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishidagi talabalar uchun kasbiy kompetentlikni rivojlantirish nafaqat fanga oid bilim, balki pedagogik mahorat, ijodiy yondashuv va metodik mustaqillik bilan bog‘liq [10:88]. Shu bois, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi mazmuni va tuzilmasini aniqlash, ularni oliy ta’lim sharoitida shakllantirish strategik vazifa hisoblanadi [11:220]. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda quyidagi strategik yo‘nalishlarga e’tibor qaratish zarur: attestatsiya tizimini kuchaytirish, regional o‘quv markazlarini kengaytirish, oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida ilmiy-metodik hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, o‘quv dasturlarni kasbiy ehtiyoj va zamonaviy talablarga muvofiq loyihalash.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda tasviriy san’at ta’limining samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish istiqbollari tobora kengaymoqda. Virtual galereyalar, 3D-modellashtirish, grafik tahrirlash dasturlari va interaktiv taqdimotlar talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda nafaqat muhim vosita sifatida xizmat qiladi, balki ularni mustaqil izlanishlar qilishga, vizual va badiiy tasavvurlarni kengaytirishga, shuningdek murakkab san’at konseptlarini amaliyotda sinab ko‘rishga imkon yaratadi [8:376]. Shu bilan birga, mentorlik va kollegial hamkorlik tizimlari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda motivatsion va amaliy jihatdan katta ta’sir ko‘rsatadi, pedagoglarning tajribasi va maslahatlari esa talabalarni professional faoliyatga tayyorlashda samarali vosita bo‘ladi.

Loyiha asosidagi ta’lim (project-based learning) va muammoga yo‘naltirilgan metodlar pedagogik innovatsiyalar doirasida muhim ahamiyatga ega. Talabalar turli vaziyatlarda muammolarni hal qilganda, ular nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham samarali egallaydilar, shu bilan birga ijodiy va kritik fikrlash qobiliyatlari sezilarli darajada

rivojlantiriladi [10:89]. Bu metodlar orqali talaba o‘qituvchi rahbarligida mustaqil izlanishlar olib boradi, o‘z qarorlarini asoslash va ijodiy yechimlar yaratish malakasini oshiradi.

Tasviriy san’at ta’limida talabaning individual ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan diagnostik va baholash tizimlari ham muhim ahamiyatga ega [9:462]. Kompetentlikni rivojlantirish jarayonida faqat bilim va malakani o‘lchash emas, balki ijodiy yechimlar yaratish, muammolarni innovatsion yo‘llar bilan hal etish, pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va professional tafakkurini mustahkamlash qobiliyati baholanishi lozim. Shu tarzda tashkil etilgan pedagogik jarayon bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini kompleks ravishda rivojlantirishga, ularni zamonaviy talablar va san’at sohasidagi innovatsiyalar bilan uyg‘unlashishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san’at pedagogikasida o‘quvchilarning ijtimoiy va madaniy kontekstini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini individualizatsiyalash muhimdir. Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida integratsiyalashgan tasviriy san’at dasturlari ijodiy loyihalar va ko‘p sohalarni qamrab olgan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu tajribalarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini mustahkamlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish ularning ijodiy salohiyatini va kasbiy faoliyatini uyg‘un tarzda rivojlantirish, zamonaviy pedagogik mahoratni tarbiyalashni ta’minlaydi. Oliy ta’lim muassasalarida esa eng muhim vazifa – har bir talaba uchun o‘z kasbini puxta egallash va pedagogik faoliyatga tayyor bo‘lish imkoniyatlarini yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Герберт М. Компетентностный подход в образовании: теория и практика. Москва: 2021.
2. Asilova G.A. Kasbiy kompetensiya va uning shakllanishi. T.: 2018.
3. Muslimov N.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. T.: TDPU. 2016.
4. Xodjayev B.X. Pedagogik mahorat. T.: Fan va texnologiya. 2017.
5. Usarov J.E. Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar. T.: TDPU. 2020.
6. Safarova R.H., Jo‘rayev R.H. Pedagogika: ensiklopediya. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2015.
7. Sulaymonov A. Tasviriy san’at ta’limida innovatsion yondashuvlar. T.: TATI nashriyoti. 2019.
8. Usmanov Botir Allaberdiyevich. (2025). TASVIRIY SAN’ATDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: ZAMONAVIY YONDASHUV VA YANGI IMKONIYATLAR. IQRO INDEXING, 16(01), 374-378. https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/12876.
9. Юсупова, Шохиста Алимжановна, and Наби Пардабоевич Жумабоев. "ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ." Science and Education 2.2 (2021): 460-464.
10. Pardaboyevich, Jumaboyev Nabi. "O ‘QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARNING O ‘RNI." WORLD OF SCIENCE 6 (2023): 87-90.
11. Pardaboevich J. N. THE APPLICATION OF EASTERN PHILOSOPHICAL AESTHETIC CONCEPTS IN ARTISTIC EDUCATION AND THEIR INTERPRETATION IN PEDAGOGICAL RESEARCH //PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI. – 2025. – Т. 14. – №. 01. – С. 218-222.